

ILK YOSHDAGI GURUH BOLALARNI MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Latipova Nazira Karimovna

Yangiyer pedagogika kolleji Maxsus fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda ilk yosh guruh tarbiyalanuvchilarini matematik tasavvurlarini shakllantirish ishlarini tashkil etish haqida so'z boradi.

Annotation

This article talks about the organization of work on the formation of mathematical ideas of the first group of children in pre-school education

Аннотация

В данной статье говорится об организации работы по формированию математических представлений детей первой группы в дошкольном образовании

Kalit so'zlar: Fazoviy tasavvur, ilk yosh, o'yin, mashg'ulot,

“O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari”da 0 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari keltirilgan, lekin Davlat o'quv dasturida ilk yosh (tug'ilgandan uch yoshgacha) bo'lgan bolalar uchun vazifalar keltirilmagan, chunki bu yoshdagi bolalar oilada parvarish qilinadilar. Lekin shunga qaramasdan oiladami yoki maxsus ochilgan hususiy bog'chalardami 0 yoshdan 3 yoshgacha bolalarga ilk matematik bilim va malakalarni shakllantirib borilishi lozim. Bola hayotining birinchi yillarida ular rivojlanishida muhim o'zgarishlar bo'lishi kutiladi. Bir yoshli bola buyumlarni ushlashga harakat qiladi, bir qancha tovushlarni chiqara boshlaydi, ismini aytsangiz o'sha tomonga qaray boshlaydi, keyinchalik esa qoshiqdan ovqatlanish, piyolani ushlab suv ichish, qopqoqlarni ochib yopish, halqachalarni uctunchaga kiygizish harakatlarini bajara boshlaydi. Oddiy o'yinchoqlarni qismlarga ajratadi va yig'ishga harakat qiladi, uchta va undan ko'p bo'laklardan iborat bo'lgan



minoralarni quradi. Ikki yoshga borib bolalar yuradi, yuguradi, baland bo'lmagan tepalikka chiqadi va tusha oladi. O'zining harakatlanish yo'nalishini o'zgartiradi va yuguradi. Zinadan mustaqil ko'tariladi va pastga tushadi. Ikki oyog'ida sakraydi va kichik ariqcha, ko'lmakcha (eni 20-25 sm) ustidan hatlab o'tadi. To'siqlar ustidan sakrab o'tadi, kichik narsalar ustidan tez yugurib yoki sakrab o'ta boshlaydi.

Ilk yoshdagi bolalar uchun ta'lim berishning eng samarali usuli bu didaktik o'yinlar hisoblanadi. Oilada o'yinlar asosan ota-onaning bo'sh vaqtlarida tashkil etilishi mumkin. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bola uy va yovvoyi hayvonlar, idish-tovoqlar, transport turlari rasmlarni uzoq kuzatishlari mumkin, ular kattalar hatti harakatlarini qiziqish bilan kuzatadilar.

Ilk yoshdan boshlab bolalar bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Ilk yosh guruh bolalariga matematik bilimlar berilmaydi, lekin matematik tasavvurlarni nutq o'stirish, sensor tarbiya, qurish-yasash, rasm va loy ishi mashg'ulotlarida o'stirib borish mumkin. Masalan: nutq o'stirishda bo'g'irsoqning shar shaklida ekanligi, qurish-yasashda keng va tor yo'lakchalar, uzun –qisqa tasmachalar, katta-kichik matryo'shkalar; rasmda quyoshni, bo'g'irsoqni, likopchani dum-dumaloq qilib chizishlari; loy ishida somsa uchburchak shaklda, pechenye kvadrat va doira shaklida bo'lishini tushuntiriladi.

Bolalarning qiziqishlarini o'stirish uchun ularni tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar bilan tanishtirish, kerakli bilim va tushunchalarni berish, ko'rsatish, ular lug'atini yangi so'zlarga boyitishimiz kerak.

Bir qancha hollarda, masalan, fazoni bilish ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o'yinlar asosida o'quv vazifasini bajaradi.

Mashg'ulotlarning mazmuni ularni o'tkazishning qanday tashkil etilishini belgilab berishi lozim.

Yangi materialni tushuntirayotganda tarbiyachi yoki bolaning hatti harakatini hamma bolalar ko'rib turishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik bilim ko'nikmalarini mustahkamlash uchun hamma bolalarga bir vaqtda topshiriq beriladi. Ular stol yonida tarbiyachiga qarab yoki unga sal surilibroq o'tirishlari zarur, ammo unga aslo orqa qilib o'tirmasliklari kerak, chunki tarbiyachi topshiriqning bajarilishi tekshirayotganida doimo bolalar diqqatini namuna, turli hil ko'rsatma qurollariga jalb etib turishi lozim.

Mashg'ulot jarayonida ko'rgazmalar, shulardan didaktik o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarning bilish faolligini rivojlantiradi.



Ikki yoshdan uch yoshgacha bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'zining spesifikasiga ega.

-Bolaga mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyat beriladi.

-Bola o'zi tanlash huquqiga ega, unga hurmat bilan qaraladi.

-Bolaga yordam ko'rsatiladi, uning harakatlarini nazorat qilinadi;

-Bolada ilk yoshdan tartib, intizom, ozodalik, ishni oxirigacha sifatli bajarish xislatlarini tarbiyalash;

Sensor tarbiya bo'limida ham matematik tassavurlarni o'stirish vazifasini belgilangan.

Agar bolalarning bilim va malakalarini qanday o'zlashtirilganliklarini tekshirish kerak bo'lsa, tarbiyachi ular bilan ishni o'z stoli atrofida tashkil etishi mumkin.

Mashg'ulot davomida yoki ohirida harakat bilan bo'g'liq bo'lgan mashqlar (harakatli o'yinlar va boshqalar) berilsa, bunday mashqlarni o'tkazish uchun oldindan joy tayyorlab qo'yiladi.

Bolalar mashg'ulotda zerikib charchab qolmasliklariga tarbiyachi etibor berib turishi kerak.

Tarbiyachi bolalarning bilim olish va uni tatbiq qilishida tashabbus ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratishlari zarurdir.

Ularni faxm - farosatlarini ishga solishga rag'batlantiradi. Fikrlash faoliyatlaridan foydalanishga undaydi.

Ilk yosh bolalar bilan o'yin va mashg'ulotlar tashkil etishning quyidagi didaktik talablari bor.

Bular: Takroriylik, kuzatish, xilma-xillik, emotsional munosabat, so'zning ko'rgazmalilik bilan birikmasi, bolalar faoliyati, bolalarni yosh va individual xususiyatlarini xisobga olgan holda ishni to'g'ri tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi O'RMTV Toshkent-2018
- 2.M.E.Jumayev. "Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent. «Ilm-Ziyo» Qo'llanma - 2013.
3. Pfn.F.Voxobova, Sh.B.Nabixanova,D.T Karimova "Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari" pedagogika kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2015.

